

MOLIYAVIY BARQARORLIK TUSHUNCHASI VA UNING BANKLAR FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI

Yangiboyev Sardor Ernazar o'g'li

Termiz Davlat Universiteti

Moliya mutaxassisligi 1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14523154>

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi moliyaviy barqarorlik tushunchasi va uning mohiyati shuningdek banklar faoliyatidagi ahamiyati yoritib berilgan. Banklarning moliyaviy barqarorligi milliy iqtisodiy tizimdagi barqarorlikka ta'siri hamda banklarning moliyaviy jihatdan qanchalik barqaror ekanligi ko'rsatuvchi moliyaviy ko'rsatkichlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy barqarorlik, tijorat banklari, iqtisodiy tizim, moliyaviy ko'rsatkichlar, kreditlar, depozitlar, bankrotlik.

Abstract: This thesis elucidates the concept of financial stability and its essence, as well as its importance in banking activities. It presents financial indicators that demonstrate the impact of banks' financial stability on the stability of the national economic system and illustrate the extent of banks' financial soundness.

Key words: financial stability, commercial banks, economic system, financial performance, loans, deposits, bankruptcy.

Аннотация: В данном тезисе раскрывается понятие финансовой устойчивости, ее сущность, а также значение в деятельности банков. Приведены финансовые показатели, отражающие влияние финансовой устойчивости банков на стабильность национальной экономической системы, а также степень финансовой стабильности банков.

Ключевые слова: финансовая устойчивость, коммерческие банки, экономическая система, финансовые показатели, кредиты, депозиты, банкротство.

Shaxs nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak moliyaviy barqarorlik deganda kishining moliyaviy imkoniyatlari hamda moliyaviy majburiyatlari o'rtasidagi yuqori ijobiy farqni tushunishimiz mumkin. Korxona nuqtai nazaridan olib qaralsa tahlillar natijasida pul oqimlarini hamda majburiyatlarini samarali boshqarishda namoyon bo'ladi.

Moliyaviy barqarorlik – bu moliyaviy tizimning, ya'ni moliya muassasalari, bozorlar va bozor infratuzilmalarining ehtimoliy shoklar va nomutanosibliklarga bardosh bera olishi, shu bilan birga moliyaviy vositachilik funktsiyalarini bajara olmaslik ehtimolini pasaytirish qobiliyatidir. Moliyaviy barqarorlik maqsadi alohida moliya muassasasi emas, balki butun moliya tizimi barqarorligini ta'minlashdan iborat. Moliyaviy barqarorlik iqtisodiyotning barqaror rivojlanish asosi hisoblanadi. (O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, 2022)

Global, Yevropa va AQSH moliyaviy barqarorligi masalalari va siyosati bo'yicha mustaqil maslahatchi i.f.d Garry J. Schinasi o'zining "Moliyaviy barqarorlikni saqlash" kitobida quyidagicha ta'rif bergan: "Moliyaviy barqarorlik – bu moliyaviy tizim o'zining uchta asosiy vazifasini bir vaqtning o'zida qoniqarli tarzda bajarishga qodir bo'lgan holatdir. Birinchidan, moliyaviy tizim jamg'arma egalaridan investorlarga resurslarni vaqt o'tishi bilan taqsimlashni va umuman iqtisodiy resurslarni taqsimlashni samarali hamda ravon tarzda amalga oshiradi. Ikkinchidan, kelajakka yo'naltirilgan moliyaviy xatarlar yetarlicha aniq baholanadi va narxlanadi, shuningdek, nisbatan yaxshi boshqariladi. Uchinchidan, moliyaviy tizim shunday

holatdagi, u moliyaviy va real iqtisodiy kutilmagan vaziyatlar hamda zarbalarni qiyinchiliksiz, hatto ba'zan ravon tarzda qabul qila oladi." (Schinasi, 2024)

Banklar uchun moliyaviy barqarorlikning iqtisodiy tizimdagi ahamiyati shundaki ular iqtisodiy faoliyatni qo'llab - quvvatlaydi, to'lov tizimlarining ishlashini kafolatlaydi, ishonch muhitini yaratadi, moliyaviy vositachilikni rivojlantiradi, moliyaviy inqirozni oldini oladi hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklari iqtisodiyotdagi kreditlash, depozit qabul qilish va to'lov tizimlarini boshqarish kabi qator vazifalarni amalga oshiradi. Ushbu vazifalarni bajarar ekan banklarning moliyaviy barqarorligi mijozlar oldidagi majburiyatlarini bajarish va umumiy ishonchni saqlashi uchun zarur hisoblanadi. Banklar barqarorligi milliy iqtisodiy tizimdagi barqarorlikning asosiy tarkibiy qismi hisoblanib, quyidagi jihatlari iqtisodiyotning umumiy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi:

- banklar iqtisodiyotning asosiy "vositachisi" bo'lib, aholi va korxonalarning jamg'armalarini samarali loyihalarga yo'naltiradi;
- barqaror bank tizimi kreditlar va investitsiyalarni uzluksiz ta'minlaydi, bu esa iqtisodiyotning turli sektorlarini qo'llab-quvvatlash uchun zarur;
- banklar faoliyati orqali kapital taqsimoti va mablag'larning iqtisodiy aylanishi muvozanatda saqlanadi;
- korxona va tashkilotlar o'rtasidagi hisob-kitoblarning uzluksizligini kafolatlaydi;
- bank tizimi moliyaviy barqaror bo'lsa, aholi va investorlar orasida ishonch ortadi;
- banklarning moliyaviy barqarorligi iqtisodiy o'sish, inflyatsiya, investitsiya hajmi va ishsizlik kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sir qiladi;
- barqaror banklar o'z vaqtida kreditlar ajratadi, bu esa korxonalar va tadbirkorlar uchun iqtisodiy faollikni oshirish imkonini beradi;
- bank tizimining izchil va barqaror ishlashi iqtisodiy inqirozlarni keltirib chiqaruvchi omillarni kamaytiradi;
- barqaror bank tizimi xalqaro moliyaviy bozorlar oldida davlatning ishonchliligini ta'minlaydi;
- investitsiya jalb qilish va chet eldan kredit olish imkoniyatlarini oshiradi

Moliyaviy barqarorlikni baholash uchun bir qator asosiy ko'rsatkichlar mavjud bo'lib, ular tijorat banklarining iqtisodiy sog'lomligini va barqarorligini aniqlashga yordam beradi. Ushbu ko'rsatkichlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Kapitalning yetarliligi – bankning o'z majburiyatlarini bajarish va zararlarni qoplash qobiliyatini ko'rsatadigan ko'rsatkich hisoblanadi va bankning kapitali va aktivlaridan foydalangan holda moliyaviy kuchini o'lchaydi.

$$\text{Kapital yetarliligi} = \frac{1 - \text{darajali kapital} + 2 - \text{darajali kapital}}{\text{Riskka asoslangan aktivlar}} \quad (1)$$

Bazel III standartlari bo'yicha kapitalning yetarliligi koeffitsiyenti 8 % dan kam bo'lmasligi kerak. Ushbu ko'rsatkich bankning qarzlarni qoplash va moliyaviy xavflarga qarshi tura olish qobiliyatini aks ettiradi.

Likvidlik darajasi - bankning qisqa muddatli majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish uchun yetarli mablag'ga ega ekanligini bildiradi. Bu ko'rsatkich bankning to'lov qobiliyatini saqlash va moliyaviy qo'rquvlarini oldini olish uchun muhim hisoblanadi va quyidagicha hisoblanadi.

$$\text{Joriy likvidlik koeffitsiyenti} = \frac{\text{Likvid aktivlar}}{\text{Qisqa muddatli majburiyatlar}} \quad (2)$$

Aktivlar sifati – bankning aktivlar portfeli, ayniqsa, kredit portfelining sifatini baholash ko'rsatkichi hisoblanadi va aktivlar sifati past bo'lsa, bu bankning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

$$\text{Muammoli kreditlar ulushi} = \frac{\text{Kreditlarning umumiy hajmi}}{\text{qaytarilmagan yoki kechiktirilgan kreditlar}} \quad (3)$$

$$\text{Provisioning Ratio (rezervlar)} = \frac{\text{qoplamalar uchun ajratilgan mablag'lar}}{\text{muammoli kreditlar}} \quad (4)$$

Rentabellik va daromadlilik ko'rsatkichlari – bankning daromad olish qobiliyatini va rentabellik darajasini aks ettiradi.

ROA: Aktivlardan olingan foyda darajasi.

ROE: Bank kapitalining rentabelligi yoki foyda darajasi.

Net Interest Margin (NIM): Kredit va depozit foizlari o'rtasidagi farq orqali bankning asosiy daromad manbaini ifodalaydi.

Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti - bankning umumiy barqarorligini baholash uchun ishlatiladi. Kapital, likvidlik va risklarni birgalikda baholab, bankning uzoq muddatli sog'lomligini ko'rsatishi bilan ahamiyatlidir. O'zbekiston bank tizimida 2023-yilda likvidlilik ko'rsatkichlari pasayuvchi dinamika, xususan bank tizimi bo'yicha sof barqaror moliyalashtirish me'vori koeffitsiyenti (NSFR) hamda likvidlilikni qoplash me'vori koeffitsiyentlarida (LCR) kamayish kuzatilgan bo'lsa-da, minimal talablar bajarildi. Ushbu holat bank tizimining uzoq muddatli aktivlarni barqaror manbalar hisobidan moliyalashtirish imkoniyati cheklanganligi hamda likvidlilik shoklariga nisbatan bardoshlilikning zaiflashish xatarlarini kuchaytiradi. (O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, 2023)

Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari banklarning sog'lom faoliyat yuritishi, majburiyatlarini bajarish qobiliyati va moliyaviy tizimdagi xavflarni kamaytirish uchun muhimdir. Ushbu ko'rsatkichlarni kuzatib borish nafaqat bank ichida, balki davlat regulyatorlari tomonidan ham qat'iy nazorat qilinadi

Banklarda moliyaviy barqarorlik holati buzilishi xususida so'z borganda bu bir qator oqibatlariga olib kelishi mumkin. Avvalo banklar tizimidagi inqirozning iqtisodiyotga ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Bunda banklar orasidagi hisob-kitoblar ishlamay qoladi, iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi tranzaksiyalar sekinlashadi, banklarning aktivlari qadrsizlanishi bozor ishonchini pasaytirib, moliyaviy vositalar narxlarining keskin o'zgarishiga olib keladi, kredit olish imkoniyatining kamayishi korxonalar faoliyatini cheklaydi, bu esa ishsizlikka sabab bo'ladi va natijada bank tizimidagi muammolar iqtisodiy faollikni pasaytirib, yalpi ichki mahsulot (YIM) o'sishini susaytiradi. Misol uchun 2008-yil global moliyaviy inqirozi AQShda boshlanib, butun dunyoga yoyilgan va iqtisodiy pasayish, ishsizlik darajasining oshishi va davlatlarning favqulodda choralar ko'rishiga olib kelgan. Ikkinchidan bankrotlik, mijozlar depozitlarining yo'qolishi va ishonchning pasayishi. Moliyaviy barqarorlik buzilganda bankrotlik va depozitlarning xavf ostida qolishi mijozlarning zarar ko'rish, banklarga bo'lgan ishonchning pasayish, davlat kafolatlariga yukning oshishi, moliyaviy sarosima kabi oqibatlarni keltirib chiqaradi. Uchinchidan Kreditlash faoliyatining qisqarishi va iqtisodiy o'sishning sustlashuvi. Moliyaviy barqarorlik buzilganda banklarning kreditlash imkoniyati cheklanadi, bu esa butun iqtisodiyotga ta'sir qiladi. Bunda korxonalar o'z faoliyatini moliyalashtirish uchun zarur mablag'larni topa olmaydi, bu esa ishlab chiqarishning

qisqarishiga olib keladi, kreditlash cheklanganda yangi loyihalar va texnologiyalarga sarmoya kiritish sekinlashadi, kreditlash faoliyatining qisqarishi iqtisodiy faollikni pasaytirib, yalpi ichki mahsulot (YIM) o'sish sur'atlarini susaytiradi va kredit tanqisligi iqtisodiy bosimlarni kuchaytirib, inflyatsiya yoki deflyatsiya xavfini oshiradi. (IMF, 2024)

Banklarning moliyaviy barqarorligi iqtisodiy tizimning samarali ishlashi va uzoq muddatli rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. Barqaror bank tizimi iqtisodiy o'sishni rag'batlantirib, moliyaviy xavflarni kamaytiradi va inqirozlarning oldini oladi. Shu sababli, banklarning kapital yetarliligi, likvidlik darajasi va risklarni boshqarish tizimlari qat'iy nazorat qilinishi, davlat va regulyatorlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, banklar moliyaviy barqarorlikni saqlagan holda iqtisodiy tizimning samarali ishlashiga xizmat qiladi. Barqaror bank tizimi orqali nafaqat qisqa muddatli iqtisodiy manfaatlar ta'minlanadi, balki uzoq muddatli milliy rivojlanish va farovonlikka erishish imkoniyati yaratiladi. Shu sababli, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash barcha iqtisodiy ishtirokchilarning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

References:

1. IMF. (2024, October). *Global Financial Stability Report*. Retrieved from [imf.org: https://www.imf.org/en/Publications/GFSR/Issues/2024/10/22/global-financial-stability-report-october-2024](https://www.imf.org/en/Publications/GFSR/Issues/2024/10/22/global-financial-stability-report-october-2024)
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki. (2022, Noyabr 15). *Moliyaviy barqarorlik haqida*. Retrieved from <https://cbu.uz/uz/financial-stability/about/>
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki. (2023). *Moliyaviy barqarorlik sharhi*. Tashkent: Markaziy Bank Moliyaviy barqarorlik departamenti.
4. Schinasi, G. J. (2024). 5 Defining Financial Stability". In *Safeguarding Financial Stability*. USA: International Monetary Fund. Retrieved Dec 2024, 2024, from <https://doi.org/10.5089/9781589064409.071.ch005>